



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart-aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адиля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDI XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhridin Bahriddin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIVAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	
MOLIVAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.....	102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING ROLI.....	105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ	109
Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова	
КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ	115
Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.	
ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ.....	119
Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	124
Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин	
ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА.....	129
Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы	
KORXONANING IQTISODIY SALONIYATINI VAHOLASH KO'RSATKICHLARI	134
Turg'unpulatov Ziyovuddin Alijon o'g'li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o'g'li	
РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ	139
Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна	
OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	144
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, X.M. Odilov	
HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI	150
Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo	
TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG'LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI	155
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov	
NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI	162
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich	
YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI.....	167
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
РОЛЬ БРЕНДИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ МАРКЕТИНГА.....	172
Насиров Дилшод Фархадович, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли, Толибжонов Умеджон Одилевич	
AMIR TEMURNING IJTIMOY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI	176
Lola Xalikova Nazarovna, Mutabar Absamatova Jamshid qizi	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И УГРОЗЫ В КОНТЕКСТЕ НОВОЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ.....	181
Убайдуллаев Сирожиддин	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI	186
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova, Nizomov Murod, Madinabonu Temirova Otabek qizi	
ПОТРЕБИТЕЛЬСКАЯ КОРЗИНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ	191
Ишонкулова Феруза Асатовна, Ибрагимова Ширин	



IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI, AHAMIYATI VA ULARNING ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI	195
Abdukaxxorova Durdona Ilxomovna, Muhabbat Hakimova Fayziyevna	
YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI VA UNING RIVOJLANISHI.....	201
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich, Abdullayev Izzatbek Akramxon o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	206
Латипов Ашур Али Рустам угли, Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович	
ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	212
Латипов Ашур Али Рустам угли, Нарбаев Жандарбек Агабекович, Собирова Мадинабону Санджаровна, Эгамкулов Шохжахон Куниш угли	
YASHIL LOGISTIKA LOYIHALARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	218
Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi, Adashaliyev Miraziz Mirzohidjon o'g'li	
INVESTITSIYALARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BARQAROR O'SISHGA TA'SIRI.....	225
Yarboeva Farida Ulug'bekovna, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ДИНАМИКА ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ВХОЖДЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОЕ СООБЩЕСТВО	230
Камилова Наргиза Абдукаخورовна, Иванян Михаил Михайлович	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIG'INING FISKAL AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	234
Otabek Jalolov, Abdurashidov Abdusamad	
YEVROPA YASHIL BITIMI VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI.....	240
Xamitillayeva Jasmina Jaxongir qizi, Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI: STRATEGIK TAHLIL VA ILMIY-NAZARIY ISTIQBOLLAR.....	246
Haitqulov Behruz Shuhrat o'g'li, Tayirov Ozodbek Ulug'bek o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA IQTISODIY O'SISH VA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSION VA INSTITUTIONAL OMILLARNING ROLI	253
Ashurova Jasmina Jo'ra qizi, Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJET HISOBINING TASHKILY-USLUBIY JIHATLARI.....	258
Orzikulova Diyora Xurshedovna, Ibragimov Mansur Mardonovich	
MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT	263
Ilhomov Diyorbek Umidjon o'g'li, Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
XUSUSIY TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH HAMDA QO'LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI	267
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi, Oxunjonova Kamola Komiljon qizi	
МЕХАНИЗМ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ПРИБЫЛИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ.....	271
Латипов Ашур Али Рустам угли, Журакулов Аббос Жасур угли, Сафарова Сабина Сирожиддиновна, Санакулов Шахзод Мансур угли	
BUXGALTERIYA AUDITINING AHAMIYATI VA UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	276
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	281
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL BANKING VA BARQAROR MOLIYALASHTIRISHNING DOLZARBLIGI	286
Alimov Umid Xamid o'g'li, F.U.Umarov	



O'ZBEKISTONDA YASHIL BANKING VA BARQAROR MOLIYALASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

Alimov Umid Xamid o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi fakulteti BIA-51 guruh talabasi

F.U.Umarov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrasida dotsenti i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda yashil banking va barqaror moliyalashtirishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan. Maqolada mavzuning bugungi kunda global va milliy darajada naqadar zarurligi, yashil bankingning asosiy tushunchalari va O'zbekiston uchun ahamiyati keng yoritilgan. Maqola O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini bank sektori nuqtayi nazaridan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yashil banking, barqaror moliyalashtirish, yashil iqtisodiyot, yashil obligatsiyalar, ESG tamoyillari, iqlim xavflari, blended finance, yashil kreditlar, taksonomiya, O'zbekiston bank sektori, ekologik loyihalar, emissiya savdo tizimi, xalqaro hamkorlik, moliyaviy barqarorlik, 2030 strategiyasi.

Abstract: This article is devoted to the current issues of green banking and sustainable financing in Uzbekistan. The paper highlights the growing importance of the topic at both global and national levels, explains the core concepts of green banking, and discusses its significance for Uzbekistan. The study aims to analyze Uzbekistan's transition strategy toward a green economy from the perspective of the banking sector and possesses both scientific and practical importance.

Key words: green banking, sustainable finance, green economy, green bonds, ESG principles, climate risks, blended finance, green loans, taxonomy, Uzbekistan banking sector, environmental projects, emission trading system, international cooperation, financial stability, 2030 strategy.

Аннотация: Данная статья посвящена актуальным проблемам зелёного банкинга и устойчивого финансирования в Узбекистане. В статье подробно освещаются актуальность темы на глобальном и национальном уровнях, основные понятия зелёного банкинга и его значение для Узбекистана. Работа направлена на анализ стратегии перехода Узбекистана к «зелёной» экономике с точки зрения банковского сектора и имеет научное и практическое значение.

Ключевые слова: зелёный банкинг, устойчивое финансирование, зелёная экономика, зелёные облигации, принципы ESG, климатические риски, blended finance, зелёные кредиты, таксономия, банковский сектор Узбекистана, экологические проекты, система торговли выбросами, международное сотрудничество, финансовая устойчивость, стратегия 2030.



KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda iqlim o'zgarishi, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlik masalalari moliya tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, "yashil" loyihalarni moliyalashtirish, ya'ni atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga, energiya samaradorligini oshirishga hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash zamonaviy bank tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida asosiy moliyaviy vositachi sifatida namoyon bo'lib, ular orqali uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish imkoniyati mavjud. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekiston sharoitida yashil loyihalarni banklar orqali moliyalashtirish tizimi hali yetarli darajada institutsional va metodologik asosga ega emas. Xususan, tijorat banklarida yashil loyihalarni aniqlash va tasniflash (green taxonomy), ekologik va ijtimoiy xatarlarni baholash (ESG risk assessment), loyiha samaradorligini baholash mezonlari hamda imtiyozli moliyalashtirish instrumentlarining cheklanganligi yashil moliya bozorining keng rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, banklar faoliyatida an'anaviy kreditlash yondashuvi ustun bo'lib qolayotgani, ekologik omillarni kredit qarorlariga integratsiya qilish darajasining pastligi ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim strategik hujjatlar qabul qilinib, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza texnologiyalar va resurs tejamkor loyihalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda tijorat banklari orqali yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat moliya tizimining barqarorligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yashil bankingning zarurligi quyidagi omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, iqlim o'zgarishi O'zbekiston iqtisodiyotiga katta zarar yetkazmoqda: qurg'oqchilik, suv tanqisligi va Aral fojiasi kabi muammolar qishloq xo'jaligi hamda aholining turmush darajasiga ta'sir qilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, iqlim tahdidlari YAIMning katta qismini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, global bozorda "yashil" mahsulotlar va xizmatlarga talab ortmoqda — xorijiy investorlar ESG mezonlariga rioya qilgan kompaniyalarni afzal ko'rmoqda. Uchinchidan, O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini (Paris kelishuvi, SDGs) barqaror moliyalashtirishni talab qiladi.

Umumiy tushuncha sifatida yashil banking banklarning an'anaviy faoliyatini ekologik mas'uliyat bilan uyg'unlashtirishdir. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: yashil kreditlar (qayta tiklanadigan energiya va energiya tejamkor texnologiyalar uchun), yashil obligatsiyalar emissiyasi, bank ichki operatsiyalarini "yashil"lashtirish (qog'ozsiz banking, energiya tejash) va iqlim xavflarini hisobga olgan kredit siyosati. Barqaror moliyalashtirish esa kengroq tushuncha bo'lib, u davlat fondlari, xususiy sektor va xalqaro yordamni qamrab oladi. O'zbekistonda bu yo'nalishning rivojlanishi 2022-yildan boshlab tezlashdi. Prezidentning 2022-yildagi qarori bilan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" qabul qilindi, unda banklarning roli alohida ta'kidlangan. Jahon banki va ADB hisobotlarida ta'kidlanishicha, davlat moliya institutlari (masalan, Business Development Bank, Uzbekistan Mortgage Refinancing Company) yashil loyihalarni moliyalashtirishda yetakchi bo'lishi kerak. 2025-yilda UNDP va Moliya vazirligi o'rtasida PAGE loyihasi doirasida hamkorlik boshlandi, bu esa milliy emissiya savdo tizimi va yashil moliya monitoringini rivojlantirishga yordam beradi [4].

Mavzuning bugungi kundagi zarurligi shundaki, O'zbekiston iqtisodiyoti tez sur'atlarda o'smoqda (2025-yilning birinchi yarmida 7,2 % o'sish), lekin bu o'sish resurslarga bog'liq. Yashil bankingga o'tmasdan uzoq muddatli barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Xalqaro tajriba (Yevropa va Xitoy) ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish yangi ish o'rinlari yaratadi, investitsiyalarni jalb qiladi va ekologik xavflarni kamaytiradi. O'zbekiston uchun bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy imkoniyat hamdir: yashil obligatsiyalar orqali xorijiy kapitalni jalb qilish va qayta tiklanadigan energiya loyihalarini moliyalashtirish mumkin. Shu bilan birga, mavzu hali chuqur o'rganilmagan. O'zbek adabiyotida klassik bank tizimi haqida ko'plab maqolalar mavjud, biroq yashil bankingning O'zbekistondagi istiqbollari kam yoritilgan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, mavzuning dolzarbligi, adabiyotlar tahlili, metodologiya va takliflarni qamrab oladi.

Yashil banking bo'yicha umumiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, u banklarning ijtimoiy mas'uliyatini oshiradi. Masalan, banklar yashil loyihalarga imtiyozli kreditlar ajratib, mijozlarni ekologik toza texnologiyalarga o'tishga rag'batlantirishi mumkin. O'zbekistonda bu jarayon GGGI (Global Green Growth Institute) hamkorligida yashil obligatsiyalar orqali 1 milliard dollardan ortiq mablag' jalb qilish bilan boshlangan. 2025-yilga kelib yashil komponentlar investitsiya loyihalarining 50 % gacha yetishi rejalashtirilgan. Xulosa qilib aytganda, yashil banking va barqaror moliyalashtirish O'zbekistonning kelajagi uchun zarur hisoblanadi. Bu nafaqat ekologiyani saqlashga, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Mavzu bugungi kunda ayniqsa dolzarbdur, chunki 2025-yil "Yashil iqtisodiyot yili" sifatida e'tirof etilib, mamlakat xalqaro majburiyatlarini bajarish yo'lida muhim bosqich hisoblanadi [4].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanadi va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini belgilaydi. Unda bank sektorining roli alohida ta'kidlangan: tijorat banklari tomonidan yashil loyihalarga imtiyozli kreditlar ajratilishi, yashil obligatsiyalar emissiyasi hamda ekologik xavflarni baholash tizimini joriy etish ko'zda tutilgan. Qarorda GHG emissiyasini 2030-yilgacha YAIM birligiga nisbatan 35 % ga kamaytirish maqsadi belgilangan bo'lib, banklarni davlat moliya institutlari orqali yashil investitsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltiradi [1].

Mazkur hujjat yashil bankingning huquqiy asosini yaratib, bank operatsiyalarini ekologik mezonlarga moslashtirishni talab qiladi. Masalan, investitsiya loyihalarida yashil komponentlar ulushini 50 % ga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bu bank kredit portfelini qayta yo'naltirishni anglatadi. Qarorning amaliy ahamiyati shundaki, u Markaziy bank va tijorat banklariga yashil moliyalashtirish monitoringini yuritish vazifasini yuklaydi, bu esa bank sektorida barqarorlikni oshiradi. Shu bilan birga, qaror xalqaro majburiyatlarni (Paris kelishuvi) hisobga olib, xorijiy yashil fondlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekistonda yashil banking hali boshlang'ich bosqichda bo'lsa-da, mazkur hujjat banklarni yashil kreditlar va obligatsiyalar orqali ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi. Natijada iqtisodiy o'sishni ekologik zarar yetkazmagan holda ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Maqolada yashil bankingning asosiy yo'nalishlari — resurs tejamlorligi va iqlim o'zgarishiga qarshi choralarni moliyalashtirish misolida yoritilgan. Bank sektorida yashil moliyalashtirish vositalari (imtiyozli kreditlar, yashil fondlar) orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Ushbu adabiyot yashil bankingni bank tizimining transformatsiyasi sifatida baholab, tijorat banklarida ESG tamoyillarini joriy etish zarurligini asoslaydi. O'zbekistonda davlat banklari (masalan, Business Development Bank) yashil loyihalarni moliyalashtirishda yetakchi bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Maqola amaliy jihatdan foydali bo'lib, unda yashil moliyalashtirish bo'yicha soliq imtiyozlari va xalqaro tajribalarni (Yevropa banklari tajribasi) O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yuzasidan takliflar berilgan. Natijada ushbu tadqiqot banklarning barqaror moliyalashtirishdagi rolini oshirib, ekologik loyihalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiradi.

Ushbu maqola yashil iqtisodiyot sharoitida biznesni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, bank sektorining yashil bankingdagi o'rnini chuqur yoritib beradi. Muallif 2025-yilgi davlat dasturiga asoslanib, banklarning yashil kreditlar orqali kichik biznes va ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash faoliyatini tahlil qilgan. Maqolada barqaror moliyalashtirishning yangi modellari — yashil obligatsiyalar va imtiyozli kredit liniyalari misolida ko'rsatib berilgan. O'zbekistonda banklar tomonidan ESG mezonlarini joriy etish va iqlim xavflarini baholash zarurligi alohida ta'kidlangan. Ushbu adabiyot yashil bankingni biznes subyektlarining ekologik toza texnologiyalarga o'tishini tezlashtiruvchi muhim vosita sifatida baholaydi. Masalan, banklar energiya tejamlor loyihalarga subsidiyalar ajratish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin. Maqolada amaliy takliflar ham berilib, Markaziy bank tomonidan yashil moliya monitoringini kuchaytirish tavsiya etilgan. Shu orqali bank tizimi yashil iqtisodiyot talablariga moslashib, barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu qismda O'zbekistonda yashil banking va barqaror moliyalashtirishni rivojlantirish bo'yicha qo'llanilayotgan tadqiqot metodlari hamda amaliy usullar chuqur ko'rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonda tijorat banklarining ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki tobora ortib bormoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash hamda suv resurslarini tejashga qaratilgan loyihalar bank kreditlash amaliyotida alohida yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lib, ular bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bular:

- kredit xatari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni xatar guruhlari bo'yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha maqbullashtirish;



- kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini hamda uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zaxiralarning yetariligidini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;
- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligi va daromadlilikini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifat tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat (1-jadval)

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi aktivlari tarkibi

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2024-y.		01.01.2025-y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	20 202	3,1%	25 154	3,3%
Markaziy bankdagi mablag'lar	33 228	5,1%	34 512	4,5%
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	24 368	3,7%	29 176	3,8%
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	28 863	4,4%	36 039	4,7%
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	32 548	5,0%	59 614	7,7%
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	3 334	0,5%	432	0,1%
Kredit qo'yilmalari, (sof)	457 847	70,2%	514 693	66,9%
Asosiy vositalar, (sof)	19 875	3,0%	24 956	3,2%
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	19 250	3,0%	23 836	3,1%
Bankning boshqa xususiy mulklari	4 484	0,7%	6 559	0,9%
Boshqa aktivlar	8 159	1,3%	14 360	1,9%
Jami aktivlar	652 157	100%	769 330	100%

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilishi bank kredit faoliyatining samaradorligini oshiradi va, o'z navbatida, bank foydasining ko'payishiga xizmat qiladi. Iqtisodiyotda moliyaviy sektor ko'laminin kengayib borishi, bir tomondan, inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, moliyaviy barqarorlik bilan bog'liq potensial xatarlarning ortishiga sharoit yaratadi. Bunday sharoitda bank tizimi aktivlarining barqaror o'sishini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishga muvozanatli yondashuv orqali aktivlar tarkibidagi potensial nomutanosibliklarni bartaraf etib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yilda Markaziy bankning ushbu yo'nalishlardagi asosiy e'tibori iqtisodiyotni moliyalashtirishning YAIM o'sishi bilan muvofiqligini ta'minlashga, kredit portfeli sifatini yaxshilashga hamda aktivlar konsentratsiyasi bilan bog'liq xatarlarni pasaytirishga qaratildi (1-jadval) [5].

Hisobot yilida banklarning jami aktivlari 117 trln so'mga yoki 18 % ga oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 769,3 trln so'mga yetdi. Aktivlar tarkibida sof kredit qo'yilmalari ulushi 2023-yildagi 70,2 % dan 66,9 % gacha, Markaziy bankdagi mablag'lar ulushi esa 5,1 % dan 4,5 % gacha kamaygan bo'lsa, boshqa banklardagi mablag'lar ulushi 8,2 % dan 8,5 % gacha, investitsiyalar va sotib olingan qimmatli qog'ozlar ulushi esa 5 % dan 7,7 % gacha oshgani kuzatildi. Shuningdek, naqd pullar ulushi 3,1 % dan 3,3 % gacha, asosiy vositalar ulushi 3,0 % dan 3,2 % gacha, hisoblangan foizlar ulushi 3,0 % dan 3,1 % gacha hamda boshqa xususiy mulklar va aktivlar ulushi 1,9 % dan 2,7 % gacha oshgan.

Sof kredit qo'yilmalari hamda Markaziy bankdagi mablag'lar ulushining kamayishi qat'iy pul-kredit sharoitlarining saqlab qolinishi va makroprudensial choralar kuchaytirilishi fonida kredit qo'yilmalari o'sishining mo'tadillashgani bilan izohlanadi (2-jadval) [5].



2-jadval. Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i

Ko'rsatkich nomi	01.01.2024-y.	01.01.2025-y.
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	148 621	177 532
Ipoteka kreditlari	58 177	67 730
Mikroqarzlilar	24 525	42 369
Iste'mol kreditlari	44 589	40 719
Ta'lim kreditlari	4 745	5 858
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	16 395	19 523
Boshqa kreditlar	191	1 334
Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	322 784	355 589
Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	308 765	330 211
Lizing va faktoring	2 034	2 767
Banklararo kreditlar	1 165	715
Mikrokreditlar	5 281	17 111
Sinditsiyalashtirilgan kreditlar	5 539	4 785
Jami kredit qoldig'i	471 406	533 121

Banklar tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarining kreditga bo'lgan talabini qondirish hamda moliyaviy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida 2024-yilda 287 trln so'm kredit ajratilib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 14,3 % ga ko'pni tashkil etdi.

2024-yilda tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kredit qo'yilmalari 10,2 % ga oshib, 355,6 trln so'mni, aholiga ajratilgan kredit qo'yilmalari esa 2023-yilga nisbatan 19,5 % ga ko'payib, 177,5 trln so'mni tashkil etdi. Aholiga ajratilgan kredit qo'yilmalari tarkibida mikroqarzlilar 1,7 barobarga oshib, 42,4 trln so'mni, ipoteka kreditlari 16,5 % ga oshib, 67,7 trln so'mni hamda boshqa kreditlar 2,3 % ga oshib, 67,4 trln so'mni tashkil etdi. 2024-yilda mikroqarzlilar aholiga ajratilgan kredit qo'yilmalaridagi ulushi 2023-yildagi 16,5 % dan 23,9 % gacha, ya'ni 7,4 foiz bandga sezilarli darajada oshgan.

Ta'kidlash lozimki, 2024-yil 1-yanvardan mikroqarzlilar maksimal miqdori 50 million so'mdan 100 million so'mga oshirilgani kreditlashning mikroqarzlilar segmentida yuqori o'sish sur'atlarini ta'minladi. Shu bilan birga, banklar kredit portfelida mikroqarzlilar konsentratsiyasi darajasining ortishi hamda mazkur kreditlar uchun garov ta'minotining talab etilmasligi ushbu segmentda xatarlarning to'planishiga olib kelmoqda. Kredit qo'yilmalari banklarning mulkchilik shakli bo'yicha tahlil qilinganda, 2024-yilda davlat banklarida jami kredit qo'yilmalari 10 % ga oshib, 366,7 trln so'mni, xususiy banklarda esa 20,5 % ga oshib, 166,4 trln so'mni tashkil etgani kuzatildi. Jami kredit portfelida davlat banklarining ulushi 2023-yildagi 70,7 % dan 68,8 % gacha kamaygan bo'lsa, xususiy banklarda bu ko'rsatkich 29,3 % dan 31,2 % gacha oshgan.

Mazkur ajratilgan kreditlarning milliy valyutadagi qismi 2023-yilga nisbatan 11,4 % ga oshib, 193 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, xorijiy valyutadagi qismi 20,6 % ga oshib, 94 trln so'mga yetdi. Shuningdek, kreditlarning 67 % ini milliy valyutadagi kreditlar, 33 % ini esa chet el valyutasidagi kreditlar tashkil etdi. Bunda kreditlarning 64 % i tadbirkorlik subyektlariga, 36 % i esa aholiga ajratilgan.

Tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlarning 73 trln so'mlik qismi revolver shaklida aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadlariga yo'naltirilgan. O'z navbatida, 2024-yil davomida 222 trln so'm yoki 2023-yilga nisbatan 20 % ga ko'p kreditlar so'ndirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich ajratilgan kreditlarga nisbatan 77 % ni tashkil etgan. Natijada banklar tomonidan ajratilgan kredit qo'yilmalari 2024-yil boshiga nisbatan 13 % ga yoki 62 trln so'mga oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 533 trln so'mga yetdi. Mazkur kredit qo'yilmalarining milliy valyutadagi qismi 2023-yildagi 55 % dan 57 % gacha oshgan bo'lsa, xorijiy valyutadagi kreditlar salmog'i 45 % dan 43 % gacha pasaygan.



Bank faoliyatida diversifikatsiyalash usulidan foydalanish masalasiga kelsak, ushbu usul bank faoliyatining turli yo'nalishlari uchun mos keladi. Xususan, uni banklarning passiv, aktiv, vositachilik va boshqa operatsiyalari sohasida samarali qo'llash mumkin [5].

Tadqiqotda, shuningdek, yashil obligatsiyalar emissiyasining ta'sirini baholash maqsadida impact assessment usuli qo'llanildi. 2023–2025-yillarda chiqarilgan yashil obligatsiyalar (masalan, SQB va Agrobank loyihalari) orqali jalb qilingan mablag'larning suv tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni boshqarish hamda himoya o'rmonlari yaratishga yo'naltirilishi tahlil qilindi. Mazkur usulda second-party opinion (Sustainable Fitch kabi mustaqil baholovchilarning xulosalari) va allocation reporting (mablag'lar taqsimoti hisoboti) asosiy vosita sifatida xizmat qilib, investorlar ishonchini oshirishga yordam beradi.

Rivojlantirish ishlari doirasida banklarning malakasini oshirish va texnik yordam dasturlari muhim o'rin tutadi. GGGI va KOICA loyihalari doirasida bank xodimlari uchun ESG standartlari bo'yicha treninglar tashkil etilmoqda, bu esa yashil kreditlarni baholash hamda fraud xavflarini kamaytirishga xizmat qilmoqda [4].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning yashil banking va barqaror moliyalashtirish yo'nalishidagi sa'y-harakatlari so'nggi yillarda sezilarli sur'atlarda rivojlanmoqda. 2025-yil oxiriga kelib mamlakat xalqaro moliya institutlari bilan yaqin hamkorlikni mustahkamladi, bu esa ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Masalan, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (OIIB) bilan imzolangan 500 million dollarlik bitim kam emissiyali rivojlanish va iqlimiy chidamlilikni oshirishga qaratilgan bo'lib, bank sektorining barqaror moliyalashtirishdagi rolini yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, yashil obligatsiyalar bozori faollashmoqda. Tijorat banklari va davlat institutlari tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar orqali milliardlab dollar mablag'lar ekologik loyihalarga yo'naltirilmoqda.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil loyihalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish O'zbekiston moliya tizimining barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tahlillar natijasida mamlakat bank tizimida yashil moliyalashtirish alohida yo'nalish sifatida shakllanayotgan bo'lsa-da, yashil kreditlar bo'yicha yagona statistik baza hamda institutsional mexanizmlar hali to'liq shakllanmaganligi aniqlandi. Xususan, bank kredit portfellarida yashil loyihalar ulushi alohida ko'rsatkich sifatida yuritilmayotgani yashil moliya bozorini baholash imkoniyatlarini cheklamoqda.

Jumladan:

1. O'zbekiston Respublikasida bank sektori uchun yagona milliy yashil taksonomiya tizimini joriy etish va uni kreditlash jarayoniga majburiy integratsiya qilish.
2. Tijorat banklarida kredit berish jarayoniga ESG risklarini baholash modulini kiritish hamda ekologik risklarni kredit skoring tizimiga qo'shish.
3. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari hisobot shakllarida "yashil kreditlar hajmi" va "yashil kredit ulushi" ko'rsatkichlarini majburiy statistik indikator sifatida joriy etish.
4. Qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi va ekologik infratuzilma loyihalari uchun imtiyozli qayta moliyalashtirish liniyalari hamda foiz stavkasi subsidiyalarini kengaytirish.
5. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda tijorat banklari uchun maxsus yashil kredit liniyalari va kafolat mexanizmlarini joriy etish.
6. Kichik va o'rta biznes subyektlarining yashil loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat kafolatlari hamda risklarni bo'lishish mexanizmlarini joriy etish.
7. Tijorat banklari xodimlari uchun yashil moliya va ESG baholash bo'yicha doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.
8. Yashil kreditlar bo'yicha loyihalarning ekologik samaradorligini baholash uchun energiya tejalishi va CO₂ chiqindilarini kamaytirish indikatorlarini kredit shartlariga kiritish.
9. Tijorat banklarining barqaror rivojlanish strategiyalarida yashil moliyalashtirishni alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilash va uni banklarning o'rta hamda uzoq muddatli biznes strategiyalariga integratsiya qilish.

Yakuniy fikr sifatida aytish mumkinki, yashil banking O'zbekiston uchun nafaqat ekologik zarurat, balki muhim iqtisodiy imkoniyat hamdir. To'g'ri yo'naltirilgan siyosat va institutsional islohotlar orqali bank sektori barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylanishi mumkin. Kelajakda ushbu yo'nalishni rivojlantirish mamlakatning global bozordagi raqobatbardoshligini oshirib, aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi bank tizimini yanada barqaror, innovatsion va samarali qilishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230>
2. "Barqaror iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasida "yashil" loyihalarni moliyalashtirish yo'nalishlari va vositalari" // Innovations in Science and Technologies jurnali. — 2025.
3. Badirova G.Sh. "Yashil iqtisodiyotga o'tish davrida biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish" // Innovations in Science and Technologies. — 2025.
4. Norqulov H., Abdusalomov A.A., Qo'ziyev I. "O'zbekistonda yashil banking va barqaror moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari" // Journal of Marketing, Business and Management (JMBM). — 2025. — Vol. 4, Issue 6. — ISSN 2181-3000.
5. Mirdovdov B.K. "Yashil loyihalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari" // Moliya va bank ishi jurnali. — 2025. — № 3. — B. 80–85.
6. Bozarov U., Soliyev S. "O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida yashil iqtisodiyotning roli va ahamiyati" // Modern Science and Research. — 2025.
7. Omonova M. "Global yashil iqtisodiyot va uning O'zbekistondagi o'rni" // Innovations in Science and Technologies. — 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son farmoni. "O'zbekiston–2030 strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida". — Toshkent: Lex.uz, 2025.
9. Global Green Growth Institute (GGGI). Uzbekistan Country Report. — 2025.
10. World Bank. Prime Picks for a Green Pivot: Uzbekistan State Funds for Climate Action. — 2025.
11. Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (OIIB) matbuot xizmati. "Yashil va barqaror bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi". — 2025.
12. UNDP Uzbekistan. PAGE Initiative Statement of Intent. — 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>